



LOYIHALARGA INVESTITSİYALARNING JALB ETILISHI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi
kafedrası mudiri i.f.d DSc, dotsent, fan o'qituvchisi
Farruxbek0209@mail.ru; orcid.org/0000-0002-4574-7728

Sattarova Dilafruz Asqar qiz

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi
1-kurs magistranti, sattarovadilafruz03@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18256137>

ARTICLE INFO

Received: 13st January 2026

Accepted: 14th January 2026

Published: 15th January 2026

KEYWORDS

Investitsiya, loyiha, investor, biznes, soliq imtiyozlari, elektron platformalar, startup ekotizim, texnoparklar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada loyihalarga investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Investitsiya jarayonining samaradorligini ta'minlaydigan omillar, xususan, huquqiy muhit, moliyaviy institutlar faoliyati, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimi tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda investitsiya siyosatini takomillashtirish, xorijiy investorlarga qulay sharoit yaratish va loyihalarga sarmoya jalb etishning zamonaviy mexanizmlari – elektron platformalar, davlat-xususiy sheriklik va grant dasturlarining ahamiyati batafsil ko'rib chiqiladi.

Hozirgi raqamli texnologiyalar asrida, intellektual salohiyatga ega har bir shaxs yaxshi yashash uchun pul topishni asosiy maqsad sifatida oldiga qo'yadi. Aytaylik sizda yaxshi o'ylangan, katta daromad keltirishi mumkin bo'lgan biznes loyiha bor va siz o'z biznesingizni yo'lga qo'yishni o'yladingiz. Bu yerda biznesni boshlash uchun biznes loyihalarga investitsiyalarning kiritilishi mamlakatimizda, balki global ahamiyatga ega.

Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-son qarori[1] qabul qilingan bo'lib, bunda mamlakatimizda loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish salohiyatini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish, mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, bundan tashqari 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish va asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash kabi vazifalar belgilab berilgan.

XXI asrda yashayotgan ekanmiz bozor iqtisodiyotining jadal sur'atlarda o'sib borayotganligini va shuning uchun xalq turmush tarzi yaxshilanishi kerakligi, bu borada o'ylangan har bir loyiha uchun investitsiya muhitini yaxshilash kun tartibidagi masala

ekanligini ko'ramiz. Ushbu maqolada loyihalarga investitsiyalarning jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqish yo'llari o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida qayd etganidek, "investitsiya – bu iqtisodiyotning yuragi, uni to'xtatib bo'lmaydi, aksincha, uni doimo yangi manbalar bilan to'ldirib borish zarur"[2] Yani iqtisodiy jarayonni harakatlantiruvchi kuch bu investitsiya hisoblanadi, turli jabhalarda innovatsion loyihalar mavjud bo'lib ularga investitsiyalar kiritilishi bu loyihaning inson ehtiyojlarini qondirish uchun zamin yaratadi.

Masalan, Abdullayev A. va Jo'rayev M. (2018) "Investitsiyalar iqtisodiyoti" asarida investitsiyani iqtisodiy resurslarning qayta taqsimlanish mexanizmi sifatida izohlaydi va loyihaga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlashning muhim mezonlarini tahlil qiladi[3] Mualliflarning fikricha, investitsiya jarayoni nafaqat kapital qo'yilmani amalga oshirish, balki mavjud resurslarni eng samarali yo'nalishlarga qayta taqsimlash orqali iqtisodiy o'sishga erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular loyihaga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan asosiy mezonlarni – net daromad, rentabellik, risk darajasi va kapitalning qaytish muddati kabi ko'rsatkichlarni batafsil tahlil qiladilar.

To'laganov U. esa investitsion faoliyatni iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy vosita deb hisoblab, investitsion loyihalarning natijadorligi investitsiyalarni jalb etish mexanizmlariga bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi[4]

Karimov N. o'zining "Loyiha menejmenti" kitobida loyihani aniq maqsad, vaqt va resurslar bilan chegaralangan tizimli faoliyat sifatida talqin etadi[5] Muallifning fikricha, investitsiyani loyihalarga jalb etishda samarali boshqaruv, risklarni kamaytirish va monitoring tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Loyihalar va ularga investitsiyalar kiritish mexanizmlari bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan va tadqiqotlar olib borishgan.

Quyidagilar yetakchi tadqiqot usullari sifatida tanlandi mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, kuzatish, solishtirish, taqqoslash va ekspert baholash usullaridan keng foydalanildi

Muhokama va natijalar. Xususan, investitsiya-foyda olish maqsadida bir korxona, shaxs va ma'lum kishilar jamoasi tomonidan o'ylangan har qanday loyihani kapitalga aylantirish jarayoni.

Bozor iqtisodiyotida o'z biznesingizni yo'lga qo'yishga qaror qilgan bo'lsangiz, biror bir sarmoyachi shunchaki g'oya unga yoqqani uchun pul bermasligini yodda tuting. Moliyaviy mablag' kiritish bilan shug'ullanuvchilarni birinchi navbatda o'z daromadi qiziqtiradi. Shu bois mablag' jalb qilishda eng asosiysi – investorni kiritilgan pul vositalari unga daromad keltirishiga ishonтира olishi kerak bo'ladi.

Ko'pchilik agar loyiha juda original bo'lsa, 100 foizlik muvaffaqiyatni kafolatlaydi deb o'ylaydi. Bu yanglish fikr. Aslida kompaniya, fond va xususiy tadbirkorlarning aksariyati bunday loyihalarga shubha bilan qaraydi. Ularga sizning g'oyangiz emas, yetarli darajada daromad keltirishi muhim. Barqarorlikni esa odatda sinalgan, odatiy sohalar ta'minlaydi.

Sizning biznes g'oyangiz qanchalik kattaligi muhim emas. Uni qanday taqdim etishingiz, sarmoyachilarni loyihaning daromad keltirishiga ishonтира olishingiz muhim. Agarda investorlar bilan muzokaralar muvaffaqiyatli tugallansa, sizga shartnomani imzolash taklif etiladi. Tabiiyki, uni diqqat bilan o'qish kerak. Undan kiritilayotgan mablag' summasi, hamkorlik muddati, tomonlar huquq va majburiyatlari yozilganini yaxshilab tekshirish zarur bo'ladi.

Innovatsion loyihalarga investitsiyalarning jalb etish kompleks yondashuvni talab etadigan jarayondir. Bunda davlat tomonidan qulay investitsion muhit yaratish muhim shundagina mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligi taminlanadi.

Quyida loyihalarga investitsiyalarning jalb etishning bir necha samarali mexanizmlarini ko'rib chiqamiz:

Soliq imtiyozlari: yangi ishlab chiqarish quvvatlari, eksportga yo'naltirilgan yoki innovatsion loyihalar uchun soliq yengilliklari berish.

Soliq imtiyozlari investitsion muhitni yaxshilovchi muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Xususan, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportga yo'naltirilgan faoliyatni kengaytirish hamda innovatsion yo'nalishdagi loyihalarni amalga oshirish uchun soliq yengilliklari berilishi investorlar uchun moliyaviy yukni kamaytiradi. Natijada, korxonalar o'z faoliyatini kengaytirish imkoniga ega bo'ladi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi ortadi.

Shu tariqa, soliq siyosati orqali investitsiyalar oqimini tartibga solish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga ham imkon yaratadi.

Elektron investitsiya platformalari: investorlar va loyihalar o'rtasida tezkor axborot almashinuvini yo'lga qo'yish.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, elektron investitsiya platformalarini joriy etish investorlar va loyihalar o'rtasida tezkor axborot almashinuvini yo'lga qo'yish, shaffoflikni ta'minlash hamda investitsiya qarorlarini tezlashtirish imkonini beradi.

Mazkur platformalar orqali mahalliy va xorijiy investorlar mavjud loyihalar, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari, moliyaviy ehtiyojlari va amalga oshirish shartlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Shu bilan birga, loyiha tashabbuskorlari o'z g'oyalarini keng auditoriyaga taqdim etish, zarur moliyaviy manbalarni topish imkoniga ega bo'ladilar.

Startup ekotizimini qo'llab-quvvatlash: yosh tadbirkorlar uchun grantlar, biznesinkubatorlar va texnoparklar tashkil etish.

Startup ekotizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari — bu grantlar ajratish, biznesinkubatorlar, akseleratorlar va texnoparklar faoliyatini kengaytirishdan iborat. Grantlar yosh tadbirkorlarga o'z loyihalarini boshlash uchun dastlabki moliyaviy resursni ta'minlab beradi, inkubatorlar esa ularni tajriba, maslahat va infratuzilma bilan qo'llab-quvvatlaydi. Texnoparklar esa ilm-fan yutuqlarini amaliy ishlab chiqarish bilan bog'lovchi muhim bo'g'in sifatida xizmat qiladi.

Investitsion forumlar va ko'rgazmalar: O'zbekistonning investitsiya salohiyatini targ'ib etish orqali xorijiy kapitalni jalb etish.

Xulosa

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda loyihalarga investitsiyalarni jalb etish jarayoni iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, investitsiya muhitini yaxshilash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish kabi chora-tadbirlar loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirmoqda.

Mamlakatda biznes yuritish qulayligi, infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi, raqamli investitsiya platformalarining joriy etilishi va xalqaro hamkorlikning faollashuvi investorlar oqimini ko'paytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, innovatsion startaplar, texnoparklar, erkin iqtisodiy zonalar va klaster tizimining rivojlanishi investitsion loyihalar soni va sifatining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga, investitsiya jarayonida ayrim muammolar, xususan, axborot yetishmasligi, ayrim hududlarda infratuzilma imkoniyatlarining cheklanganligi, investorlar uchun kafolat va imtiyozlar bo'yicha ma'lumotlarning sust targ'ib qilinishi mavjud. Ushbu masalalarni hal etish investitsiya salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

References:

1. Qodirov, F. "OPTIMIZATION OF TELECOMMUNICATIONS POWER SUPPLY SYSTEMS BASED ON RELIABILITY CRITERIA." Science and innovation 2.A12 (2023): 15-20.
2. F Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashtrish. Scienceweb academic papers collection . 2023/1/1.
3. F Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.
4. Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
5. Farrux Qodirov. BUSINESS INNOVATION MODEL OF INCOME AND COSTS FROM THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
6. Farrux Qodirov. ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF THE DEVELOPMENT OF THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
7. Farrux Qodirov. THE PLACE OF ECONOMETRICAL MODELING OF HEALTHCARE QUALITY IMPROVEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
8. Farrux Qodirov. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
9. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 128-130.
10. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 80-83.
11. Qodirov, Farrux. "THE ROLE OF ICT IN THE DEVELOPMENT OF HEALTH SERVICES." RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MA'RUZALAR TO'PLAMI (2022).

12. Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. Biznes-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.
13. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." Хоразм Маъмун академияси (2022).
14. ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ." AGRO ILM (2022).
15. Qodirov, Farrux. "VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO'NALISH BO'YICHA NOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR." Analytical Journal of Education and Development (2022).
16. Qodirov, Farrux. "FURYE QATORI FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH." МАТЕМАТИК ФИЗИКА ВА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2021).
17. Qodirov, Farrux. "MASOFAVIY TA'LIMDA MOODLE. TUITKF. UZ PLATFORMASINING O'RNI VA ANAMIYATI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР Тўплами (2020).
18. Qodirov, Farrux. "RASPBERRY PI QURILMASINING TEXNIK XUSUSIYATLARI VA UNING IMKONIYATLARI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР Тўплами (2020).
19. Qodirov, Farrux. "PROTECTING WEBSITES FROM VARIOUS ATTACKS." АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИННОВАЦИЯЛАР мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТУПЛАМИ (2019).
20. Кодиров, Ф. "PROTSESS RAZRABOTKI IGROVOGO DVIJKA UNITY." Scienceweb academic papers collection (2019).